ISNN 3030-3907

2026/4
VOLUME 7

DEVELOPMENT OF SCIENCE

ILMIY JURNAL



Development of science

Ilmiy jurnal

2026/4 VOLUME 7

ISSN 3030 -3907

Ilmiy jurnal OAK rayosatining 2024 yil 27 sentabrdagi 361-son qaroriga asosan 02.00.00 kimyo fanlari hamda 2025 yil 12 fevral 367- son qaroriga asosan 05.00.00 texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR:
Temirov Alisher Hoshim o‘g‘li – texnika fanlari falsafa doktori (PhD),Dotsent.
TAHRIRIYAT KENGASH RAISI:
Fozilov Sadriddin Fayzullayevich – texnika fanlari doktori, professor
TAHRIRIYAT KENGASH A’ZOLARI

TEXNIKA FANLARI/ TECHNICAL SCIENCES/ ТЕХНИЧЕСКИЕ НАУКИ

Bozorov G‘ayrat Rashidovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Abdurahmonov Olim Rustamovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Adizov Bobur Zamirovich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti, professor
Hayitov Ruslan Rustamjonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Jumayev Qayum Karimovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Berdiyev Dorob Murodovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor
Maxmudov Rafiq Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Tilloyev Lochin Ismatilloyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Raxmonov Qahramon Sanakulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Barakayev Nusratullo Rajabovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor.
Jo‘rayev Xayrullo Fayziyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Panoyev Erali Rajabboyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Ataullayev Sherzod Nabiullyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Malik Negmurodovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Axmedova Ozoda Bahronovna
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti.
Safarov Bahri Jumayevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Xaydarov Axtam Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Safarov Jasur Alijon o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Асадова Раъно Дилмуратовна
Тошкент Давлат техника университети доценти

KIMYO FANLARI/ CHEMICAL SCIENCES/ ХИМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Axmedov Voxid Nizomovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Umarov Baqo Bafoyevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Kodirov Abduaxad Abduraximovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Qurbonov Mingniqul Jumagulovich
Qarshi davlat Universiteti, dotsent
Turemuratov Sharibay Naurizbaevich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Bosh ilmiy kotibi, professor
Tursunov Kaxor Shonazarovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Do‘stov Hamro
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Panoyev Nodir Shavkatovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Olimov Bobur Bahodir o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Kasimov Sherzod Abduazimovich
Termiz Davlat Universiteti, professor.
Aliqulov Rustam Valiyevich
Termiz Davlat Universiteti, professor
Tropov Xamza Tursunovich
Samarqand Davlat Universiteti, professor

IQTISODIYOT FANLARI/ ECONOMICS/ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Nizamov Aslitdin Badreddinovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Boboyev Akmal Choriyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Ergashxojayeva Shaxnoza Djasurovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Saidaxmedova Nodira Ilxomovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Muxsinov Bekzod Toxirovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shakarov Qulmat Ashirovich
Renessans ta'lim universiteti,dotsent.
Jumaeva Zulfiya Qayumovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Norova Salomat Yusupovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Avezova Shaxnoza Maxmudjonovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Jalilov Jamshid G‘anijonovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, dotsent
Xasanova Gulruh Djumanazarovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.

PEDAGOGIKA FANLARI/ PEDAGOGICAL SCIENCES / ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ

Siddiqova Sadoqat G‘afforovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Zoyirov Erkin Xalilovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, DSc, professor
Gaffarov Feruz Hasanovich
Puchon Universiteti, *professor*
Ruziyev Davron Yuldashevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Muradova Firuza Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Yunusova Gulandon Samiyevna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
To‘xtayeva Zebo Sharifovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Navro‘zova Gulchixra Nigmatovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Uzoqova Laylo Polvonovna
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.
To‘raqulova Marjona Qiyom qizi
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Muradova Zarina Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Sanjar Aslonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shodiyev Jahongir Jo‘raqulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent
Gaffarov Laziz Hasanovich
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.

Tahririyat a’zolarning to‘liq ro‘yxati jurnalning www.devos.uz saytida keltirilgan.

Tahririyat hay’ati a’zolarining tarkibini o‘zgartirish hamda qo‘shimcha kiritish yoki tahririyat a’zoligidan chiqarish bosh muharrir tomonidan amalga oshiriladi.

ISSN 3030-3907

Development of science ilmiy jurnali 2024 yil 15 aprel kuni №256445 sonli guvohnoma bilan Davlat ro‘yxatidan o‘tgan.

To‘plam elektron ko‘rinishda (pdf formatida) mualliflarga taqdim etiladi. To‘plamga kiritiladigan maqolalarning mazmuni, ulardagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligiga hamda har qanday fikr - mulohazalarga mualliflarning o‘zlari mas’ul hisoblanadilar. Talablarga javob bermaydigan maqolalar to‘plamga kiritilmaydi. Tashkiliy qo‘mita maqola matnini qisqartirish, qisman tuzatish kiritish, seksiyalarga joylashtirish huquqiga ega.

ISSN 3030-3907

AMIR TEMUR SALTANATIGA OID MANBALARDA QOZILIKLAR HAQIDAGI MA'LUMOTLAR

Uljayeva Shoxistaxon Mamajonovna
TIQXMMI MTU, tarix fanlari doktori, professor,
E-mail: uljaevashohistahon@gmail.com
Tosheva Go'zal Sherboboyevna
Toshkent kimyo-texnologiya instituti, katta o'qituvchisi,
E-mail: shohi2009@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada tarixiy manbalar asosida Amir Temur va Temuriylar saltanatidagi qozilik tizimi tahlil qilingan. Xususan, ispan elchisi Klavixo kundaligida keltirilgan ma'lumotlar orqali qozilarning davlat boshqaruvidagi o'rni, vazifalari va faoliyati yoritilgan. Qozilar nafaqat sud ishlarini yuritgan, balki ma'muriy boshqaruv, elchilik va siyosiy jarayonlarda ham faol ishtirok etgan. Ular aholi shikoyatlarini ko'rib chiqqan, hujjatlarni rasmiylashtirgan va qarorlarni amalga oshirishda muhim rol o'ynagan. Shuningdek, Abdurazzoq Samarqandiy va boshqa manbalar asosida ayrim mashhur qozilar faoliyati haqida ma'lumotlar keltirilgan. Tadqiqot natijalari qozilik instituti Temuriylar davlatchiligida adolatni ta'minlash va boshqaruv samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega bo'lganligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Amir Temur, Temuriylar, qozilik, sud tizimi, davlat boshqaruvi, Klavixo, tarixiy manbalar, adolat.

Аннотация. В данной статье на основе исторических источников анализируется институт казиев в государстве Амира Темура и эпоху Темуридов. Особое внимание уделяется сведениям, приведённым в дневнике испанского посла Клавихо, где раскрывается роль казиев в системе государственного управления. Отмечается, что казии выполняли не только судебные функции, но и участвовали в административной деятельности, дипломатических миссиях и политических процессах. Они рассматривали жалобы населения, оформляли документы и обеспечивали исполнение решений. Также на основе трудов Абдурраззака Самарканди приводятся сведения о деятельности отдельных известных казиев. Результаты исследования показывают, что институт казиев играл важную роль в обеспечении справедливости и эффективности управления в государстве Темуридов.

Ключевые слова: Амир Темур, Темуриды, казии, судебная система, государственное управление, Клавихо, исторические источники, справедливость.

ISSN 3030-3907

Abstract. This article analyzes the institution of qadis (judges) in the state of Amir Temur and the Timurid Empire based on historical sources. Particular attention is given to the diary of the Spanish envoy Ruy Gonzalez de Clavijo, which provides valuable information on the role and functions of qadis in governance. The study shows that qadis were not limited to judicial duties but also participated in administrative governance, diplomatic missions, and political affairs. They examined public complaints, prepared official documents, and ensured the implementation of decisions. Additional information from Abdurazzoq Samarkandi highlights the activities of prominent qadis of the period. The findings demonstrate that the institution of qadis played a crucial role in maintaining justice and improving administrative efficiency in the Timurid state.

Keywords: Amir Temur, Timurids, qadis, judicial system, governance, Clavijo, historical sources, justice.

KIRISH.

Amir Temur va Temuriylar davrida qozilik instituti nafaqat sud-huquq tizimining muhim bo‘g‘ini, balki davlat boshqaruvining ajralmas qismi sifatida ham faoliyat yuritgan. Qozilar jamiyatda adolatni ta’minlash, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish va shariat qoidalarini amalda qo‘llashda asosiy o‘rinni egallaganlar. Ular faqatgina sud ishlarini ko‘rib chiqish bilan cheklanib qolmay, davlat siyosatida ham muayyan ta’sir kuchiga ega bo‘lgan shaxslar hisoblangan. Shu boisdan ham qozilik lavozimi juda mas’uliyatli va nufuzli mansab sifatida qaralgan.

Manbalardan ma’lum bo‘lishicha, qozilarning tayinlanishi katta mas’uliyat va jiddiy saralash jarayonini talab qilgan. Bu lavozimga odatda chuqur diniy va huquqiy bilimga ega, halol, insofli, adolatparvar va xalq orasida obro‘-e’tibor qozongan shaxslar tanlangan. Qozining shaxsiy fazilatlari uning chiqaradigan hukmlarining adolatli bo‘lishida hal qiluvchi omil sifatida qaralgan. Shuning uchun ham ko‘p hollarda qozilarning ilm darajasi, hayotiy tajribasi va axloqiy sifatlari alohida baholangan.

Amir Temur davlatida qozilar faoliyati muayyan tartib-qoidalar asosida amalga oshirilgan. Ular ish yuritishda shariat normalari, mahalliy urf-odatlar va davlat qonunlariga tayangan holda qarorlar qabul qilganlar. Ayniqsa, «Temur tuzuklari»da adolat tamoyili markaziy o‘rin egallagan bo‘lib, unda har bir amaldor, jumladan qozilar ham xalq oldida mas’ul ekanligi alohida ta’kidlangan. Bu esa davlatda huquqiy tartib-intizomni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etgan.

Ispaniya qiroli elchisi sifatida Samarqandga tashrif buyurgan Rui Gonzales De Klavixo “Kundaligi”da Amir Temur saltanatidagi qoziliklar haqida muhim ma’lumotlar mavjud.

ISSN 3030-3907

Klavixo bergan ma’lumotlarga ko‘ra, “Podshoh o‘z saltanati va xonadonining ishlari bilan shug‘ullanuvchi qozilarni hamisha o‘zi bilan birga olib yuradi. Biror joyga kelganlarida qozilar o‘sha mamlakat xalqini boshqarish ishlari bilan ham shug‘ullanadilar. Mamlakat aholisi ularning ra’yiga itoat etadi, farmoyishlariga bo‘ysunadilar. Mazkur qozilar yumushning turiga qarab quyidagicha belgilanadi: biri odamlar orasida kelib chiqadigan chigalliklarni hal etish bilan shug‘ullanadilar, boshqa birlari podshoga qaram bo‘lgan turli shaharlar va yurtlarga noib va boshliq etib tayinlanadilar. Yana boshqalari elchilik vazifasini o‘taydilar”[1].

Shuningdek, qozilarning ish faoliyatiga oid ma’lumotlarni ham ispan sayyohi yozib qoldirgan: “Qachonki saltanat boshqaruvi tuzilmasi qaror topgach, qozilarning har biri o‘z o‘rnini bilib joylashadi va ishga tutinadilar. Qozilar uchta chodir tikib, bu chodirlarda arz-dod bilan kelgan kishilarni tinglaydilar va ishlarini hal etadilar. Chodirdan chiqib podshohga axborot beradilar, so‘ng yana chodirga qaytib to‘rtta va oltitalab ishni amalga oshirish uchun taqdim etadilar. Bu kishilar biror qog‘oz hujjat taqdim etish haqida farmoyish bersalar, ularning mirzolari darhol hozir bo‘lib, hujjatni shu ondayoq ixcham tarzda tayyor qiladilar. Hujjat tayyor bo‘lgach, uni maxsus daftarlarga qayd etadilar. Shundan keyin mirzo bu qog‘ozni egasiga taqdim etish uchun maslahatchi xodimga topshiradi. Maslahatchi kesma kumush muhrni olib, unga siyoh surtib qog‘ozning ichki tomoniga bosadi. Shundan keyin qog‘ozni boshqa kishi olib qayd etib, o‘z boshlig‘iga uzatadi. Qog‘oz shu yo‘sinda uch-to‘rt qo‘ldan o‘tgach, uning o‘rtasiga saltanat muhrini bosadilar. Muhrga “Rosti – rusti” (“Kuch adolatdadir”) degan so‘z yozilgan bo‘lib, o‘rtasiga bodom shaklidagi belgi joylashtirilgan[2].

Shunday qilib, har bir maslahatchi xodimning o‘z mirzosi va o‘z qayd daftari bor. Muayyan shaxsga taqdim etilgan bunday hujjatdagi podshoh muhrini va mirzolar muhrini ko‘rsatish bilan har qanday ish kuni, shu soatdayoq zudlik bilan bajo keltiriladi[3].

Tarixiy manbalarda Amir Temur va Temuriylar davlatida qozilik mansabiga tayinlangan ba’zi insonlar tilga olingan. Xususan, Sohibqiron Amir Temurning Aziz ismli bilimdon va halol qozisi bo‘lgan. Askar qoziligi Sayyid Ziyovuddinga berilgan[4].

Abdurazzoq Samarqandiy tomonidan Shohruh Mirzo davrida qozi Imoduddin [5], qozi Qutbuddin Abdulloh [6], qozi Salohuddin[7], qozi Ahmad Soidiy va boshqa qozilar eslatib o‘tilgan.

Abdurazzoq Samarqandiy Ahmad Soidiyni dovyuraklarning peshqadami deb atagan va eng katta tadbirlar va uchrashuvlarda u doimo ishtirok etganligi haqida ma’lumotlar keltirib o‘tgan [8].

ISSN 3030-3907

Abdurazzoq Samarqandiy Xorazmda amir Idikuning o‘g‘li Muborakshoh hokim bo‘lgani, Bekijak devon amiri va sadr qozi mansabida bo‘lganligi haqida ham ma’lumotni yozib qoldirgan [9].

Shohruh mirzo huzuriga Xitoydan elchilar kelganda Hoji Yusuf qozi bir nechta til biluvchi musulmonlar bilan birga elchilar oldiga kelgani va ularga qoidalarni tushuntirgani haqida ham ma’lumot uchraydi [10].

Abdurazzoq Samarqandiyning o‘zi va XV asr tarixnavisi Mirxondning ko‘rsatishlaricha, Jaloluddin Is'hoq Samarqandiy Shohrux saroyida «mulozimlik»da bo‘lib, ko‘p yillar davomida uning o‘rdusi (lashkari)da imomlik va qozilik mansabini o‘tagan. Shunga binoan, u Samarqanddan Hirotga Shohruhning hokimlikka tayinlanish davrlarida yoki undan keyinroq kelib qolgan bo‘lishi mumkin[11].

“Boburnoma”da Zahiriddin Muhammadning yoshlikdagi piri-ustozi Xoja Mavlono Qozi Abdullo haqida ham ma’lumotlar bor. Bu zot islom tarixidagi dastlabki to‘rt xalifa (“chahoryor”lar) naslidan bo‘lmish mashhur Shayx Burhoniddin Qilich avlodlaridan bo‘lib, temuriylarning Farg‘ona mulkidagi piri, ustozi sifatida shuhrat qozongan edi.

Burhoniddin Qilich O‘zgandda tavallud topgan O‘rta Osiyolik shayx Sayyid Kamoliddinning nevarasi, Maxdumi A’zamning bobokaloni bo‘lib, Qoraxoniylardan Bug‘roxon Abu Ali Hasan ibn Sulaymon (1059-75-yil)ga zamondosh bo‘lgan.

Uning avlodi ulug‘ mutasavvuf olim bo‘lmish Xoja Mavlono Abdullo[12] Qozi Umarshayx mirzoning mudhish o‘limi yuz bergan tahlikali kunlari Boburga otaliq – pirlik qilgan, 12 yoshli tajribasiz yosh podshohni g‘animlardan saqlab, to‘g‘ri yo‘lga yetaklagan va ko‘nglini ko‘tarib yaxshi maslahatlar bergan, keyinchalik ham unga ustozlik qilgan zot edi. Bobur podshohligining dastlabki yillarida Andijon bir gal dushman qurshovida qolib, xalqi ochlikka mahkum etilganida, piri Xoja Abdullo qozi Boburga mehribonlik yuzasidan 18 mingta qo‘y so‘yib, qurshovdagilarga tarqatgan. Bobur ham o‘z xotiralarida uni dastlabki ustoz sifatida hurmat bilan esga oladi. (Afsuski, 1498 yil Bobur Samarqanddan Andijonga yetib kelguncha g‘animlar uni o‘ldirib yuboradilar).

Qozilarning jamiyatdagi o‘rni va nufuzi juda yuqori bo‘lgan. Ular ko‘p hollarda xalq bilan bevosita muloqotda bo‘lib, turli nizolarni joyida hal qilishga harakat qilganlar. Bu holat sud jarayonlarining uzoq cho‘zilib ketishining oldini olgan va adolatning tez qaror topishiga xizmat qilgan. Shu bilan birga, qozilar jamiyatda tinchlik va barqarorlikni saqlashda ham muhim rol o‘ynaganlar.

Qozilar faoliyati faqat sud ishlari bilan cheklanib qolmagan. Ular davlat boshqaruvida ham faol ishtirok etganlar. Xususan, ayrim qozilar viloyat va

ISSN 3030-3907

shaharlarga rahbar sifatida tayinlangan, davlat idoralarida maslahatchi vazifasini bajargan va muhim qarorlar qabul qilish jarayonida ishtirok etgan. Bu esa ularning davlat tizimidagi o‘rni nihoyatda muhim bo‘lganini ko‘rsatadi.

Temuriylar davrida qozilik tizimi yanada rivojlanib, mukammallashgan. Ayniqsa, Shohrux Mirzo va Mirzo Ulug‘bek davrlarida ilm-fan, madaniyat va huquqiy tafakkur yuksak darajada rivojlangan. Bu jarayon qozilar faoliyatiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatgan. Qozilar nafaqat fiqh ilmlarini, balki mantiq, falsafa, tarix va tilshunoslik kabi sohalarni ham yaxshi bilishgan. Bu esa ularning qarorlarini yanada puxta va asosli bo‘lishini ta’minlagan.

Shuningdek, qozilar ma’naviy-axloqiy hayotda ham muhim o‘rin tutganlar. Ular jamiyatda adolat, halollik, insof va poklik kabi qadriyatlarni targ‘ib qilishgan. Odamlarni to‘g‘ri yo‘lga boshlash, yosh avlodni tarbiyalash va diniy-ma’rifiy ishlar bilan shug‘ullanish ham ularning vazifalari qatoriga kirgan. Shu jihatdan qaraganda, qozilar nafaqat huquqshunos, balki jamiyatning ma’naviy rahnamolari sifatida ham faoliyat yuritganlar.

Qozilarning diplomatik vazifalarda ishtirok etganligi ham manbalarda qayd etilgan. Ular ayrim hollarda elchi sifatida boshqa davlatlarga yuborilgan yoki xorijiy elchilarni qabul qilishda qatnashgan. Bu esa ularning bilim darajasi, siyosiy ongi va nutq madaniyati yuqori bo‘lganligidan dalolat beradi. Bunday vazifalarni bajarish katta ishonch va mas’uliyatni talab qilgan.

Ayrim manbalarda qozilarning harbiy yurishlarda ham ishtirok etganligi qayd etiladi. Ular qo‘shin bilan birga harakat qilib, yurish davomida yuzaga keladigan nizolarni hal qilgan, harbiy intizomni ta’minlashga ko‘maklashgan. Bu esa qozilik institutining qanchalik ko‘p qirrali va muhim ekanligini ko‘rsatadi.

Qozilarning faoliyati ustidan muayyan nazorat ham o‘rnatilgan. Agar qozi adolatsiz qaror chiqarsa yoki o‘z vazifasini suiiste’mol qilsa, unga nisbatan chora ko‘rilgan. Bu esa davlatda adolat tamoyilining ustuvor bo‘lganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, halol va adolatli qozilar davlat tomonidan rag‘batlantirilgan.

Temuriylar davridagi qozilar haqidagi ma’lumotlar tarixiy manbalarda keng yoritilgan. Bu manbalar orqali biz o‘sha davrdagi huquqiy tizim, sud amaliyoti va jamiyatdagi adolat tushunchasi haqida qimmatli ma’lumotlarga ega bo‘lamiz. Shuning uchun ham bu manbalarni o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda qozilik institutini tarixiy jihatdan o‘rganish, uning faoliyatini tahlil qilish va zamonaviy huquqiy tizim bilan taqqoslash muhim ilmiy ahamiyatga ega. Chunki tarixiy tajriba zamonaviy davlat boshqaruvini takomillashtirishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, Amir Temur va Temuriylar davlatida qozilar jamiyatning huquqiy, siyosiy va ma’naviy hayotida katta rol o‘ynaganlar. Ularning

ISSN 3030-3907

faoliyati adolat, tartib va barqarorlikni ta’minlashga xizmat qilgan. Qozilarning boy tarixiy merosi bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan bo‘lib, uni chuqur o‘rganish va keng jamoatchilikka yetkazish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Klavixo Samarqandga-Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi (1403-1406 yillar). Toshkent: O‘zbekiston, 2010. -B. 204.
2. Klavixo...-B. 204-205.
3. Klavixo...-B. 205.
4. Amir Temur Ko‘ragon. Temur qissasi. Toshkent, Fan, 2004. -B. 179.
5. Abdurrazzoq Samarqandiy. Matlai sa’dayn va majmai bahrayn / Fors-tojik tilidan tarjima, kirish so‘z va izohli, lug‘atlar A. O‘rinboyevniki. 2-jildli. - Toshkent: Fan, 1969.-B. 75.
6. Abdurrazzoq Samarqandiy... -B. 90.
7. Ko‘rsatilgan asar...- B. 184.
8. Abdurrazzoq Samarqandiy... -B. 176
9. Abdurrazzoq Samarqandiy... -B. 235.
10. Abdurrazzoq Samarqandiy... -B. 436.
11. Abdurrazzoq Samarqandiy... -B.11.
12. Boburnoma. Toshkent, 1993. -B.17.

ISSN 3030-3907